

SAYLOVLAR MAMLAKATI TARAQQIYOTI UCHUN XIZMAT QILADI

Rahmonova Zulfiya Bahromovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi "Umumta'lim fanlari"

kafedrasi o'qituvchisi Telefon: +998995111402

Zrahmonova0189@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif saylovlarning mamlakat rivojidagi ahamiyati, saylov huquqlari, Konstitutsiyaga muvofiq saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlar hamda fuqarolarning saylovlarga mas'uliyat bilan ishtirok etishi lozimligi haqida qisqacha fikrlar yuritgan.

Kalit so'zlar: demokratik saylovlar, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar, yagona saylov okrugi, Markaziy saylov komissiyasi, siyosiy partiya.

Аннотация:

В этой статье автор сделал краткие размышления о важности выборов для развития страны, об избирательных правах, изменениях в избирательном законодательстве в соответствии с Конституцией, а также о необходимости ответственного участия граждан в выборах.

Ключевые понятия: демократические выборы, Всеобщая декларация прав человека, гражданские и политические права, единый избирательный округ, Центральная избирательная комиссия, политическая партия.

Abstract:

In this article, the author made brief remarks on the importance of elections in the development of the country, on electoral rights, on changes made to electoral law in accordance with the Constitution and on the responsibility of citizens to participate in elections.



Key concepts: democratic elections, Universal Declaration of human rights, civil and Political Rights, single constituency, Central Election Commission, political party.

Ma'lumki, saylovlar – mamlakatimiz fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlovchi siyosiy huquqi hisoblanadi. 1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham saylov huquqi sohasidagi tamoyillar va standartlar o'z ifodasini topgan bo'lib, bugungi kunda erkin, demokratik saylov tashkil qilinishi va o'tkazilishini ta'minlash sohasida 20 dan ortiq universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar amal qiladi. Bir so'z bilan aytganda, demokratik saylovlar fuqarolik va siyosiy huquqlarning tantanasi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirda qabul qilingan Qonstitutsiyasining 36-moddasida “O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega”¹ ekanligi kafolatlangan bo'lib, bu jarayonlar o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi. Yuqoridagi konstitutsion norma mazmuniga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, davlat organlarini damokratik shakllantirish bu mazkur organlarni bevosita saylov yo'li bilan, xalq o'zi ishongan vakillarini saylashi orqali amalga oshirilishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida saylov huquqlarini kafolatlovchi normalar, saylov jarayonlarini huquqiy tartibga soluvchi qonun hujjatlari mavjud bo'lib, bu qoidalar Bosh qomusimizda ravon, ham yuridik, ham xalqchil tilda o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari ushbu masalalar hamda saylov jarayonini tashkil etish va o'tkazishning huquqiy mexanizmi O'zbekiston Respublikasining 2019 yilda qabul qilingan Saylov kodeksi bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiysi vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega bo'lib, ovoz berish huquqi fuqaroning o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

Ba'zi qonunchilikda belgilangan istisno holatlarida, ya'ni sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.



joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa hech qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Belgilangan tartibga ko‘ra, saylash huquqiga ega mahkumlar qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar ro‘yxatiga kiritiladi. Saylovchilarning ro‘yxatlari esa mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi va saylovchilar yagona elektron ro‘yxatiga kiritiladi. Agarda harakatlanish erkinligi cheklangan muassasalarda mahkumning saylash huquqi bo‘la turib unda ishtirok etishiga to‘sinqilik qilish holatlari bo‘yicha murojaatlar kelib tushsa, ular darhol joyiga chiqib o‘rganiladi.²

Joriy yilda ham mamlakatimiz yana bir qizg‘in siyosiy jarayonlar ostonasida turibdi, ya’ni bu yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlarining viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlar bo‘lib o‘tishi rejalashtirilgan. Albatta bu jarayonlarning tashkillashini hamda o‘tkazilishi demokratik tamoyillar, saylov qonunchiligi talablari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar doirasida aralash saylov tizimini joriy etmoqda. Jumladan, Saylov kodeksiga qator o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkazish uchun 75 ta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi;

Deputatlikka siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazish uchun O‘zbekistonning butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi;

Partiya ro‘yxati Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olinganidan keyin, ushbu ro‘yxatga kiritilganlar deputatlikka nomzod maqomini oladi va ularga guvohnoma beriladi;

Partiya ro‘yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partyaning a’zolari yoki partiyasiz bo‘lishi mumkin. Boshqa siyosiy partyaning a’zolari ushbu ro‘yxatga kiritilishi mumkin emas;

Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi;

² F.Eshmatova. Fuqarolarning saylov huquqi va kafolatlari.

<https://ombudsman.uz/uz/news/2023/06/19/fuqarolarning-saylov-huquqi-va-kafolatlari-2>



Ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida 40 foizini tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har 5 nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim.

Shuningdek, yagona saylov okrugi bo'yicha saylanadigan Qonunchilik palatasining deputatlik o'rnlari ushbu saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarining 7 va undan ko'proq foizini to'plagan siyosiy partiyalar o'rtasida taqsimlanadi.

Agar saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarining 7 va undan ko'proq foizini faqat bitta siyosiy partiya to'plagan bo'lsa, unda deputatlik o'rnlari saylovchilarning eng ko'p ovozini to'plagan ikkinchi siyosiy partiyaga ham taqsimlanadi. Markaziy saylov komissiyasi deputatlik mandatlarini siyosiy partiyalar o'rtasida taqsimlash to'g'risida bayonnomma tuzadi. Partiya ro'yxati bo'yicha saylangan deputatlar o'rtasida deputatlik mandatlarini taqsimlash Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan partiya ro'yxatiga kiritilgan deputatlikka nomzodlar ketma-ketligiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zida davlat va jamiyat ishlariga mas'ullik burchini his qilgan har bir fuqaro bo'lib o'tadigan saylovlarga faol ishtirok etib, o'z nomzodlarining istiqboldagi dasturlarini puxta o'rganib ovoz bermog'i lozim, zero saylovlarning zamirida kelajakdagi yurt taqdiri yotadi. Shu sababli ham fuqarolarning mamlakat istiqboli uchun keyingi besh yillikdagi taraqqiyot, iqtisodiy yuksalish, xalq farovonligi uchun jarayonlarda faol ishtirok etishlari dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi 2019 yil.
3. F.Eshmatova. Fuqarolarning saylov huquqi va kafolatlari.

[https://ombudsman.uz/uz/news/2023/06/19/fuqarolarning-saylov-huquqi-va-kafolatlari-2.](https://ombudsman.uz/uz/news/2023/06/19/fuqarolarning-saylov-huquqi-va-kafolatlari-2)